

O'ZBEKISTON INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING QADIMGI O'CHOQLARIDAN BIRI.

Ismatova Gulxumor Shahobiddin qizi

*Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 23-umumiy o'rta
ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri ekanligi va mamlakatimiz xududida olib borilgan tarixiy arxeologik qazishmalar va ularning natijalari to'g'risida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Sivilizatsiya davrlari, Seleng'ur, Qulbuloq, teshiktosh, pitekanthrop, zinjanthrop, sinanthrop, «Farg'ona odami» paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, jaytun, Kaltaminor, Xisor, matriarxat, patriarxat, mehnat taqsimoti.*

Qadimgi Turon, O'rta asrlarda Movarounnahr keyinchalik Turkiston, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo deb atalgan hudud insoniyat sivilizatsiyasi ilk o'choqlaridan biri bo'lgan.

Vatanimizning qadimgi davriga oid tarixiy asarlarni o'rganish orqali O'zbekiston odamzod ilk paydo bo'lgan o'lka ekanligini tushunish, ajdod larimizning qadimgi hayoti, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy hayoti haqida bilimga ega bo'lish mumkin.

Turli davrlarda yashagan mutafakkirlar insoniyatning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni aytganlar. Ular, insonni mehnat va aqliy jihatdan kamol topish natijasida hozirgi darajasiga yetib kelgan degan fikrni ilgari surganlariga qaramay, odamni xudo yaratgan, yoki boshqa sayyoralardan kelgan degan rivoyatlar ham bor.

Ingliz olimlari Likilar o'tgan asrning 50-60 yillarida Sharqiy Afrikada

(Olduvoy darasida) oddiy tosh qurollar, odam qoldiqlarini topib, ular bundan 3-3,5mln. yil ilgari mavjud bo'lgan degan xulosani ilgari surdilar. Bu turdagi odamlar fanda "Zinjanthrop" deb nom olgan.

Undan keyingi davrda yashagan qadimgi odamlar qoldiqlari Indoneziya dagi Yava orolidan XIX asr oxirlarida topilgan bo'lib, fanda ularni "Pitekanthrop" ("Maymun odam") deb atash rasm bo'lgan. Bular taxminan 1 mln 700-600 ming yil ilgari (E.Dyubua) yashagan. Shu bilan birga, 1927 yilda Xitoy hududlaridan topilgan (D.Blek) odam qoldiqlari ("sinanthrop" "Xitoy odami") bundan 600-500 ming yil ilgari davrga oidligi aniqlangan. Eng qadimgi odam qoldiqlari Germaniyaning Neandertal vodiysidan, topilganligi tufayli fanda ularni "Neandertal odami" deb atashgan. O'zbekistonning (Surxon, Boysun tog'idan) Teshiktosh g'oridan topilgan. Neandertal odami shular jumlasidandir.

O'tgan asrning 80-yillarida arxeolog O'.Islomov boshliq tadqiqotchilar Farg'ona

vodiysidagi Selengur g'oridan paleolit davri makonini topadilar. Bu yerdan topilgan qurollar Olduvoy qurollariga o'xshab ketadi. Bu topilmalarning yoshi 1 mln yildan ziyodroqdir. Bu topilmalar ichida qadimgi odam jag' suyaklari, tishlari, yelka suyaklari muhimdir. Fanda "Farg'ona odami" - "Fergantrop" deb nomlangan.

Hozircha fanda o'rganilgan sivilizatsiya davrlari - ibtidoiy jamiyat odamlarining yashash tarzi, jismoniy va aqliy tuzilishi, mehnat qurol-larining turi va materiallarga ko'ra bir qancha davrlarga bo'linadi.

1 davr: Paleolit (grekcha "palayos-qadimgi, "litos"-tosh degan ma'noni anglatadi) qadimgi tosh davri deb ataladi.

Bu davr uch bosqichdan - ilk paleolit, o'rta paleolit va so'nggi paleo litdan iborat. Ilk paleolit bundan 2,5 million yillardan 100 minginchi yillarni o'z ichiga oladi. O'rta paleolit bundan 100-40 ming yillar avvalgi davrdir. Bu davr Mustye madaniyati ham deb yuritiladi.

2 davr: Mezolit (yunoncha "mezos"-o'rta, "litos"- o'rta tosh davri deyiladi. U milloddan avvalgi 12- minginchi yillardan 7 minginchi yillargacha davom etgan.

3 davr: Neolit (yunoncha "-neos" yangi, "litos"-tosh) yangi tosh davriga milloddan avvalgi 6-4 minginchi yillar kiradi.

4 davr: Eneolit, misdan qurollar yasash o'zlashtirilgan uchun, tosh-mis davri deyiladi. U miloddan avvalgi 4 minginchi yillikda yuz beradi.

5 davr: Bronza: mis va qalay qotishmasidan mehnat qurollari yasashgan u milloddan avvalgi 3-2 minginchi yillarni o'z ichiga oladi. Miloddan avvalgi bir minginchi yillarni boshlarida temirdan turli qurollar, asbob-uskunalarining yasali sh natijasida temir asri boshlanadi.

Ilk paleolit davri tabiiy-geografik jihatdan yozi issiq, qishi sovuq, yog'ingarchilik kam bo'lgan. Bu davr oxirgi bosqichlarida sayyoramizni muzlik qoplab iqlim soviydi. Tez-tez yog'ingarchilik bo'lib turadi. Odamlar aqliy, jismoniy jihatdan takomillashadi.

Paleolit davri odamlar yashagan manzilgohlar Farg'ona vodiysining Seleng'urg'oridan, Toshkent viloyatining Ko'lbuloq makonidan topib o'rga-nilgan. Olimlar Seleng'ur (So'x tumani) g'oridan paleolit davri makonini ochishga muvaffaq bo'ldilar.

So'nggi tadqiqotlar natijalariga qaraganda Seleng'ur ilk paleolit davriga oid bo'lib, o'n uchta madaniy qatlamdan iborat. Bu qatlamlardan juda ko'plab ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollar ko'p hollarda Olduvoy qurollariga o'xshab ketadi. Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Seleng'ur topilmalarining yoshi I mln yildan ziyodroqdir. Seleng'ur topilmalari orasida qadimgi odam jag' suyaklari, tishlari va yelka suyaklari muhimdir. Fanda «Farg'ona odami» - «Fergan-trop» deb nomlangan bu qazilma odam qoldiqlari eng qadimgi odam haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytirish bilan birga, O'rta Osiyoda, O'zbekis-tonning insoniyat paydo bo'lib rivojlangan o'choqlardan biri ekanligini uzil-kesil isbotlaydi.

1963-1970 yillarda arxeolog M.R.Qosimov rahbarligida Ko'lbuloq makonida 10 dan ortiq qatlamni o'rganadilar. Bu yerdan dag'al ishlangan tosh qurollari, hayvon suyaklari topiladi.

Ilk paleolit davrida odamlar to'da-to'da bo'lib yashaganlar, tayyor narsalarni,

daraxtlarning mevalarini, o'simliklar ildizlarini kavlab tirikchilik qilishgan. Birgalashib yirik hayvonlarni ushlab yeganlar.

Surxondaryoning Boysun tog'idagi Teshiktosh g'oridan 8-9 yashar bolaning qabri topilgan. Undan odamning kalla suyagi, ovlab tirikchilik qilgan hayvon suyaklari, toshdan yasalgan o'choq, qushlarning suyaklari topilgan. O'rta Osiyoda bu davrga oid 50 dan ortiq manzilgohlar o'rganilgan, Masalan, Surxondaryoning, Teshiktosh, Samarqandning, Omonqo'ton, Toshkentning, Obirahmat, Farg'ona vodiysida- Boqirg'on darasi, Navoiy viloyatining Uchtut va xokazo. Sunggi paleolit odamlarning manzilgohlari Toshkent, Surxondaryo viloyatlaridan, ya'ni O'rta Osiyoda 30 dan ortiq yodgorliklar topib o'rganilgan. Bu davrda mehnat qurollari yasashda, odamlarning turmushida, dunyoqarashida xo'jalik yuritishida keskin o'zgarishlar bo'lgan. Olimlar bu davr odamini (aql-idrokli odam) deb ataydilar. Chaqmoq toshdan nayza uchlari, teshuvchi mehnat qurollari yasashgan. Baliq ovlashgan, o'zlariga kulbalar qurishgan.

Bu davrda ibtidoiy to'da o'rnida, jamoa urug'chilik tuzumi vujudga kelgan. Bu davrda ona urug'i "Matriarxat" asosiy rol o'ynagan. Erkaklar va ayollar o'rtasida mehnat taqsimoti: ayollar uy ishlari, bola tarbiyasi, oziq-ovqatlarni saqlash bilan shug'ullanishgan.

Erkaklar ovchilik, mehnat qurollarini yasash bilan mashg'ul bo'lganlar. Ayollar turli bezaklar va taqinchoqlar yasashni o'zlashtirganlar. Bu davrda yirik hayvonlarning rasmlarini, ov manzaralarini chizganlar. Shunday qilib, tasviriy san'at paydo bo'ladi.

1970-1980 yillarda U.Islomov boshchiligida arxeologlar Farg'ona viloyatining Obishir soyida qidiruv ishlarini olib borib, Obishir-1 va Obishir-5 deb atalgan makonlardan mezolit davri odamlarining izlarini topadilar. Surxondaryo viloyatining "Machay" soyi qirg'og'idagi g'ordan turli xil tosh qurollari, suyak qurollari, o'choq, odam skeletlari topilgan. Birinchi marta o'q-yoydan foydalanishgan. Bu esa odamlarning tabiat kuchlariga qarshi kurashida burilish bo'lishiga olib kelgan.

Ovchilikda hayvonlarni qo'lga o'rgata boshlashgan. Odamlar endi mazali mevalarni iste'mol qiladilar. Asta-sekin it, sigir, qo'y, echki kabi hayvonlarni qo'lga o'rgatadilar, boshqoli o'simliklarni o'stiradilar. Mezolit davrida yuqorida ta'kidlaganimizdek, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatishni o'rgangan, boshqoli o'simliklarni ekib don olishni o'rgansa, neolit davrida bu yanada takomillashadi, insonlar hayotida chorvachilik va dehqonchilik asosiy o'rinni egallaydi. Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllanib bo'ladi. Ko'chib yurishdan, o'troq hayot kechirishga o'tadilar. Doimiy yashaydigan kulbalar yasaydilar. Matolardan kiyimlar kiyadilar. Hunarmandchilik, to'qimachilik, tikuvchilik paydo bo'ladi. O'zbekistonda eneolit va bronza davri odamlari hayotini tasvirlovchi ko'plab manzilgohlar topilgan.

Bu Buxoro viloyati Zomonbobo ko'li atrofida, 1950 yillarda Y.G'.G'ulomov, 1960 yillarda A.Asqarovlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilib, eneolit va bronzadavri odamlarining makonini, qabristonini o'rganishgan. O'lik-lar yolg'iz, juft, uchta (erkak, ayol, bola) ko'milgani aniqlanadi. Erkaklar qabridan o'q-yoy, pichoqsimon qurollar, ayollar qabridan tosh munchoq, marjon, oltin, surma, tosh oynalar topiladi.

O'rta Osiyo tarixida neolit davri qabilalari, xo'jalik shakllariga qarab uchta: Jaytun, Kaltaminor va Xisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Jaytun madaniyati. Janubiy Turkmanistonda, Ashxobod shahridan 25 km shimoldagi Jaytun

manzilgohlaridan topilgan. Bu qishloq bir necha uylardan iborat bo'lib, somon aralashtirilgan paxsadan qurilgan. Ularning maydoni 12-14 kv.m bo'lgan. Uylar yonida omborxona, xo'jalik o'ralari bor. Uylardan loy va toshdan yasalgan har xil taqinchoqlar topilgan. Jaytun qishlog'i xarobalaridan bug'doy, arpa izlari, toshboltalar, o'tkir uchli toshlar qirg'ich, kamon o'qlari topilgan. Jaytun qishlog'i aholisi mil. Avv VI-V ming yilliklarda dehqonchilik, chorvachilik, qisman ovchilik bilan shug'ullanganlar. Ular sun'iy ariq va kanallar qazib sug'orma dehqonchilikka asos solganlar. Jaytun makonidan qo'lda ishlangan sopol idishlar ham topilgan bo'lib, ular O'rta Osiyodagi dastlabki sopol namunalaridir.

Kaltaminor madaniyatiga oid makonlar orasida Xorazmdagi Jonbos-qal'a makoni diqqatga sazovordir. Bu yerdan nayza paykonlar, kamon o'qlarining uchlari va boshqa tosh qurollar topilgan. Topilmalar orasida sopol idishlar namunalari ham bo'lib olimlarning fikriga ko'ra ular mil. avv V-IV ming yilliklarga oiddir. O'rta Osiyoning Sharqiy hududlaridan, Hisor-Pomir tog'laridan neolit davri yodgorliklari o'rganildi. Bu madaniyat fanda Hisor madaniyati degan nom oldi. Xisor madaniyatiga oid yodgorliklar 200 dan ziyod bo'lib, mil. avv. V-III ming yilliklarga oiddir. Neolit davri odamlari o'zlarining tinimsiz mehnati, ibtidoiy bilimlarini safarbar qilib, dehqonchilik va chorvachilikni kashf etdilar. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi katta oilali jamoalarda erkaklar mavqeining ortib borishiga, matriarxat o'rniga ota huquqi-patriarxatni qaror toptirishga olib kelgan. Qarindoshchilik otaga qarab tanlangan.

Bronza davriga oid manzilgohlar Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlaridan ham topib o'rganilgan. Mamlakatimizning shimolidagi cho'l va dasht joylarda chorvador urug' jamoalari va qabilalar yashagan. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanishgan, podalarini uzoq joydagi yaylovlarga haydab borganlar. Bronza davri oxirlarida ular o'z podalarini haydab o'troq dehqon jamoalari yashaydigan joylarga tinch yoki zo'rlik bilan kirib borganlar.

Miloddan avvalgi bir mingginchi yillarning boshlarida ajdodlarimiz temirdan mehnat qurollari, qurol-yaroqlar, bezak buyumlar yasashni o'zlashtiradilar. Shunday qilib, odamlar hayotida temir davri boshlanadi. Temirdan yasalgan ketmon, belkurak, omoch bilan maydonlarni haydash, to'g'on qurish, kanal va ariqlar qazib, suv chiqarish imkonini beradi. Temirning kashf etilishi hunarmandchilikning rivojlanishiga olib keldi. Kulolchilik, charxi va sopol buyumlar keng tarqaldi, qo'l tegirmoni vujudga keldi. Odamlar g'ishtdan paxsadan, sinchdan alohida bir oilaga mo'ljallangan uylar qurdilar. Shu tariqa odamlarning turmush tarsi o'zgarib, yaxshilanib bordi.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va miloddan avval II ming yillikda chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir.

Metall qurollar qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli O'rta Osiyo dasht va tog' oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonchilikdan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi.

Bu tarixiy jarayon kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti bo'lib hisoblangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston tarixi. 1-Qism. T., Universitet. 1999 yil.
2. Murtazayeva R.X. O'zbekiston tarixi. Darslik. T. 2003 yil.
3. Usmonov K va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 1-Qism. T.2002 yil.
4. Q.Usmonov. O'zbekiston tarixi. (Darslik). T., 2007yil
5. Sa'dullayev A.,Eshov B. O'zbekiston tarixi. I qism. T., 1999 yil